ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi: milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PREVENTIV NUTQIY AKTLARNING LINGVOPRAGMATIK VA SOTSIOPRAGMATIK JIHATLARI

Asadov Alisher Bahodirovich,
Buxoro davlat tibbiyot instituti
o'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili kafedrasi assistenti

Nutq insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi eng asosiy faoliyat shakllaridan biridir. Har qanday muloqot jarayonida so'zlovchi faqat ma'lumot yetkazish bilan cheklanmaydi, balki tinglovchiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi, uni biror harakatga undaydi, ayrim harakatlardan qaytaradi, ogohlantiradi yoki ehtiyotkorlikka chaqiradi. Shu jihatdan nutqiy aktlar nazariyasi til birliklarining faqat grammatik yoki semantik tomonini emas, balki ularning real kommunikativ vaziyatdagi vazifasini ham o'rganishga imkon beradi. Ayniqsa, preventiv nutqiy aktlar muloqotning oldini olish, saqlash, ogohlantirish va ehtiyotkorlikka undash kabi vazifalarini ifodalashi bilan alohida ahamiyatga ega.

Preventiv nutqiy aktlar kundalik hayotda juda faol qo'llanadi. Masalan, «Ehtiyot bo'ling», «Shoshilmang», «Bu ishni qilmasangiz yaxshi bo'ladi», «Yo'lni kesib o'tishda avval chap va o'ng tomonga qarang», «Bunday gapni aytmaganingiz ma'qul», «Sovuq suv ichmang, tomog'ingiz og'rib qoladi» kabi birliklar oddiy ogohlantirish ko'rinishida bo'lsa-da, ularning zamirida murakkab pragmatik maqsad yotadi[1]. Bunday aktlar orqali so'zlovchi adresatning kelajakdagi xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatadi, uni ehtimoliy salbiy oqibatdan saqlashga harakat qiladi. Demak, preventiv nutqiy aktning asosiy belgisi uning kelajakdagi ehtimoliy holatga yo'naltirilganligidir[2].

Zamonaviy pragmalingvistika va sotsiopragmatika doirasida preventiv nutqiy aktlarni o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki bu turdagi nutqiy aktlar faqat lingvistik shakl bilan emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimi, madaniy me'yorlar, axloqiy qadriyatlar va kommunikativ strategiyalar bilan bevosita bog'liqdir. Bir xil mazmundagi ogohlantirish turli vaziyatlarda turlicha ifodalanishi mumkin. Masalan, ona farzandiga «Yiqilib tushasan, yugurma» desa, shifokor bemorga «Mazkur dorini shifokor tavsiyasisiz qabul qilish tavsiya etilmaydi» deydi. Har ikkala holatda ham preventiv ma'no mavjud, ammo nutqiy shakl, ohang, ijtimoiy masofa va ta'sir mexanizmi turlicha namoyon bo'ladi.

Preventiv nutqiy aktlarning sotsiopragmatik tahlili, avvalo, ularning ijtimoiy kontekstda qanday ishlashini aniqlashga qaratiladi. Sotsiopragmatika til birliklarining jamiyatdagi qo'llanish qoidalarini, nutq ishtirokchilarining o'zaro munosabatini, ijtimoiy maqom va madaniy qadriyatlarning muloqotga ta'sirini o'rganadi. Shu sababli preventiv aktlarni tahlil qilishda faqat «nima deyildi?» savoli emas, balki «kim aytdi?», «kimga aytdi?», «qanday vaziyatda aytdi?», «qanday maqsadda aytdi?» va «bu ifoda adresat tomonidan qanday qabul qilindi?» kabi savollar ham muhim hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi preventiv nutqiy aktlarning sotsiopragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning o'zbek tilidagi ifodalanish shakllari va kommunikativ vazifalarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun preventiv aktlarning mohiyati, ularning bevosita va bilvosita ko'rinishlari, ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi, xushmuomalalik strategiyalari va milliy-madaniy xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda pragmatik tahlil, kontekstual tahlil, tavsifiy usul va diskursiv yondashuvdan foydalanildi. Material sifatida kundalik muloqot namunalari, rasmiy ogohlantirish matnlari, pedagogik va tibbiy muloqotga xos ifodalar hamda ommaviy kommunikatsiyada uchraydigan preventiv birliklar tanlab olindi.

Preventiv nutqiy aktlar mazmunan keng hodisa bo'lib, ular ogohlantirish, maslahat, tavsiya, buyruq, taqiq, iltimos, ogoh etish, ehtiyotkorlikka chaqirish kabi bir necha nutqiy harakatlar bilan yaqin aloqada namoyon bo'ladi. Biroq ularning umumiy birlashtiruvchi belgisi shundaki, so'zlovchi adresatni ehtimoliy xavf yoki noxush oqibatdan saqlashni ko'zlaydi[3]. Masalan, «Bu yerga kirmang» ifodasida taqiq kuchli bo'lsa, «Bu yerga kirish xavfli bo'lishi mumkin» ifo-

[1] Остин Дж. Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1986. – Вып. 17. – С. 22–129.
[2] Сёрль Дж. Р. Речевые акты: очерк философии языка. – М.: Прогресс, 1986. – 285 с.
[3] Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.

dasida ogohlantirish va ehtiyotkorlikka chaqirish ustun turadi. «Yaxshisi, hozir bormaganingiz ma'qul» shaklida esa maslahat va preventivlik birgalikda namoyon bo'ladi.

1-jadval. **Preventiv nutqiy aktlarning asosiy pragmatik ko'rinishlari**

Preventiv akt ko'rinishi	Misol	Pragmatik maqsad	Ijtimoiy vaziyat
Ogohlantirish	Ehtiyot bo'ling, yo'l sirpanchiq.	Xavfni oldindan bildirish	Kundalik muloqot
Taqiq	Bu hududga kirish mumkin emas.	Harakatni cheklash	Rasmiy ogohlantirish
Maslahat	Bunday qilmaganingiz ma'qul.	Noxush oqibatning oldini olish	Do'stona yoki hurmatli muloqot
Tavsiya	Sovuqda issiqroq kiyining.	Sog'liqni asrash	Oilaviy, tibbiy muloqot
Iltimos orqali ogohlantirish	Iltimos, hujjatlarni vaqtida topshiring.	Kechikishning oldini olish	Rasmiy-ish yuritish muloqoti

Preventiv nutqiy aktlar yagona grammatik shakl bilan chegaralanmaydi. Ular turli nutqiy janr va vaziyatlarda har xil shaklda yuzaga chiqadi. Masalan, oilaviy muloqotda preventivlik ko'pincha mehr, g'amxo'rlik va tashvish ohangi bilan ifodalanadi. Rasmiy muloqotda esa u ko'proq norma, qoida va majburiyat sifatida namoyon bo'ladi. Tibbiy muloqotda preventiv aktlar sog'liqni saqlash, kasallikning oldini olish yoki davolash tartibiga rioya qilish bilan bog'liq bo'ladi. Pedagogik muloqotda esa ular tarbiya, intizom va ijtimoiy xatti-harakat me'yorlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Preventiv aktlarning sotsiopragmatik xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri ijtimoiy maqomdir. So'zlovchi va adresat o'rtasidagi maqom farqi nutqiy aktning shakliga kuchli ta'sir ko'rsatadi[1]. Masalan, rahbar xodimga «Hisobotni kechiktirmang» deb bevosita murojaat qilishi mumkin. Ammo xodim rahbarga nisbatan «Hisobotni bugun ko'rib chiqish imkoningiz bo'lsa, yaxshi bo'lardi» kabi bilvosita va muloyim shakldan foydalanadi. Bu yerda preventiv ma'no saqlanadi, chunki xodim muayyan ishning kechikib ketmasligini nazarda tutadi, biroq ijtimoiy maqom farqi sababli nutqiy shakl yumshatiladi.

O'zbek nutq madaniyatida yoshi katta kishiga, rahbarga, ustozga yoki hurmat qilinadigan shaxsga bevosita buyruq ohangida murojaat qilish ijtimoiy jihatdan noqulay hisoblanadi. Shu sababli preventiv aktlar ko'pincha «ma'qul bo'lardi», «yaxshi bo'lardi», «ehtimol», «iloji bo'lsa», «tavsiya qilardim» kabi modal birliklar yordamida yumshatiladi. Masalan, «Buni qilmang» ifodasi qat'iy va keskin eshitilsa, «Buni qilmaganingiz ma'qul bo'lardi» shakli ijtimoiy jihatdan muloyimroq qabul qilinadi. Demak, preventiv aktning samaradorligi faqat uning mazmuniga emas, balki qanday ifodalanganiga ham bog'liq.

Kommunikativ masofa ham preventiv nutqiy aktlarning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Yaqin munosabatdagi shaxslar o'rtasida ogohlantirish qisqa, bevosita va emotsional bo'lishi mumkin: «To'xta!», «Borma!», «Qo'lingni tekkizma!», «Yugurma!». Bunday birliklar ayniqsa xavf darajasi yuqori bo'lgan vaziyatlarda samarali hisoblanadi[2]. Aksincha, rasmiy yoki notanish kishilar o'rtasidagi muloqotda preventivlik odatda neytral, muloyim va me'yoriy shaklda beriladi: «Xavfsizlik nuqtai nazaridan ushbu hududga kirish tavsiya etilmaydi», «Iltimos, belgilangan tartibga rioya qiling». Bunda so'zlovchi adresatning «ijtimoiy yuzi»ga zarar yetkazmaslikka intiladi.

Preventiv nutqiy aktlarning yana bir muhim belgisi ularning bevosita va bilvosita shakllarda namoyon bo'lishidir. Bevosita preventiv aktlarda maqsad ochiq, aniq va keskin ifodalanadi. Bunday holatda adresatdan muayyan harakatni bajarish yoki bajarmaslik talab qilinadi. Bilvosita preventiv aktlarda esa ogohlantirish yashirinroq, muloyimroq yoki maslahat shaklida beriladi. Masalan, «Derazani ochmang» bevosita taqiq bo'lsa, «Xona sovib ketishi mumkin» bilvosita preventiv ogohlantirishdir. Ikkinchi holatda so'zlovchi to'g'ridan-to'g'ri buyruq bermaydi, ammo adresatga derazani ochmaslik kerakligini anglatadi.

[1] Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
[2] Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2003. – 502 p.

2-jadval. **Bevosita va bilvosita preventiv nutqiy aktlarning qiyosiy tavsifi**

Belgilar	Bevosita preventiv akt	Bilvosita preventiv akt
Ifoda shakli	Qat'iy, aniq, buyruq yoki taqiq ohangida	Yumshoq, maslahat yoki ishora shaklida
Misol	Buni qilmang.	Buni qilmasangiz yaxshi bo'lardi.
Pragmatik kuch	Yuqori	O'rtacha yoki yashirin
Qo'llanish vaziyati	Xavfli, tezkor, nazorat talab qiladigan vaziyat	Rasmiy, hurmatli yoki nozik muloqot
Sotsiopragmatik vazifasi	Harakatni darhol cheklash	Adresatga bosimni kamaytirib ta'sir qilish

Bevosita preventiv aktlar ko'pincha favqulodda, xavfli yoki vaqt tanqis bo'lgan vaziyatlarda qo'llanadi. Masalan, bola yo'lga yugurib chiqayotgan paytda «To'xta!» deyish eng samarali nutqiy harakatdir. Bunday vaziyatda muloyimlikdan ko'ra xavfning oldini olish ustuvor bo'ladi. Ammo oddiy suhbatda, ayniqsa kattalar yoki ijtimoiy maqomi yuqori shaxslar bilan muloqotda bilvosita shakllar afzal hisoblanadi. Chunki bunday shakllar muloqotdagi ziddiyatni kamaytiradi va adresatning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini saqlaydi.

Preventiv nutqiy aktlarda xushmuomalalik tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Xushmuomalalik faqat odob belgisi emas, balki kommunikativ strategiyadir. So'zlovchi ogohlantirishni juda keskin ifodalasa, adresatda qarshilik, norozilik yoki himoyalanish reaksiyasi paydo bo'lishi mumkin[1]. Shu sababli o'zbek tilida preventiv aktlar ko'pincha yumshatish vositalari bilan birga keladi. «Iltimos», «marhamat», «yaxshisi», «agar imkon bo'lsa», «ehtiyot bo'lsangiz», «tavsiya qilamiz» kabi birliklar preventiv ma'noni yumshatib, muloqotning ijobiy ruhda davom etishiga xizmat qiladi.

Masalan, «Telefoningizni o'chirib qo'ying» ifodasi oddiy buyruq sifatida qabul qilinishi mumkin. «Iltimos, telefoningizni ovozsiz rejimga o'tkazib qo'ysangiz» shaklida esa shu mazmun muloyimroq tarzda ifodalanadi. Har ikkala holatda ham preventiv maqsad mavjud: muloqot, yig'ilish yoki dars jarayonining buzilishining oldini olish. Biroq ikkinchi shakl ijtimoiy jihatdan maqbulroq va kommunikativ jihatdan samaraliroqdir.

O'zbek tilida preventiv aktlarning milliy-madaniy xususiyatlari ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Milliy nutq madaniyatida kattaga hurmat, kichikka izzat, maslahatni muloyim berish, tanbehni bevosita emas, balki ishora bilan yetkazish an'anasi kuchli. Shu sababli preventivlik ko'pincha maqol, ibora, kinoya, yumshoq ogohlantirish yoki tajriba asosidagi maslahat shaklida ifodalanadi. Masalan, «Shoshgan qiz erga yolchimas», «Etti o'lchab, bir kes», «Avval o'yla, keyin so'yla» kabi xalqona birliklar ham preventiv mazmunga ega. Ular bevosita «bunday qilma» demaydi, lekin ehtiyotsizlik, shoshqaloqlik yoki o'ylamasdan harakat qilishning salbiy oqibatini eslatadi.

Preventiv nutqiy aktlar tibbiy muloqotda juda muhim vazifani bajaradi. Shifokor bemorga «Dorilarni o'z vaqtida iching», «Muolajani to'xtatib qo'ymang», «O'zbilarmonlik bilan antibiotik qabul qilmang», «Agar holatingiz og'irlashsa, darhol murojaat qiling» kabi ifodalar orqali kasallikning asoratlanishini oldini olishga harakat qiladi. Tibbiy diskursda preventiv aktlar ko'pincha maslahat va tavsiya ko'rinishida beriladi, chunki bemorga haddan tashqari keskin buyruq berish muloqot samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bilan birga, xavf yuqori bo'lgan holatlarda shifokor qat'iy ogohlantirishdan foydalanadi: «Bu dorini me'yoridan ortiq qabul qilish mumkin emas».

Pedagogik muloqotda preventiv nutqiy aktlar tarbiyaviy va nazorat vazifasini bajaradi[2]. O'qituvchi o'quvchiga «Darsga kechikmang», «Uy vazifasini vaqtida bajaring», «Imtihonga tayyorgarliksiz kelmang», «Boshqalarning fikrini bo'lmang» kabi ogohlantirishlar orqali nafaqat intizomni ta'minlaydi, balki o'quvchining kelajakdagi xatti-harakatini tartibga soladi. Bunda preventiv aktning pragmatik maqsadi faqat hozirgi vaziyatga emas, balki kelajakdagi muayyan natijaga qaratilgan bo'ladi. Ya'ni o'qituvchi o'quvchini yomon baho, intizomiy chora, tushunmovchilik yoki kommunikativ noqulaylikdan saqlashni nazarda tutadi.

Oilaviy muloqotda preventiv nutqiy aktlar g'amxo'rlik va emotsional yaqinlik bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ota-ona farzandiga «Sovuqda yupun yurma», «Begona odam bilan ketma», «Telefonni ko'p ishlatma», «Issiq choyni ehtiyot bo'lib ich» kabi ifodalar orqali uni himoya qilishga intiladi. Bunday aktlarda ijtimoiy nazorat bilan birga mehr,

[1] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 300 б.
[2] Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. – Тошкент: Фан, 2013. – 196 б.

tashvish va mas'uliyat hissi ham mavjud bo'ladi. Shu sababli oilaviy preventiv aktlar ba'zan keskin shaklda ifodalansa ham, adresat tomonidan g'amxo'rlik sifatida qabul qilinadi.

Rasmiy diskursda preventiv aktlar ko'proq normativ xarakterga ega bo'ladi. Masalan, «Chekish taqiqlanadi», «Begona shaxslarning kirishi man etiladi», «Xavfsizlik qoidalariga rioya qiling», «Hujjatlarni belgilangan muddatda topshiring» kabi birliklar muayyan tartibni saqlashga xizmat qiladi. Bu yerda so'zlovchi shaxsiy munosabat bildirmaydi, balki tashkilot, muassasa yoki ijtimoiy institut nomidan ogohlantiradi. Rasmiy preventiv aktlarning kuchi ularning institutsional maqomi bilan belgilanadi.

3-jadval. **Preventiv nutqiy aktlarning turli diskurslardagi namoyon bo'lishi**

Diskurs turi	Preventiv ifoda namunasi	Asosiy vazifa	Pragmatik xususiyat
Tibbiy diskurs	Dorini shifokor tavsiyasisiz qabul qilmang.	Sog'liqni asrash	Tavsiya va taqiq uyg'unligi
Pedagogik diskurs	Darsga kechikmang.	Intizomni ta'minlash	Nazorat va tarbiya
Oilaviy diskurs	Sovuqda yupun yurma.	G'amxo'rlik qilish	Emotsional yaqinlik
Rasmiy diskurs	Begona shaxslarning kirishi man etiladi.	Tartibni saqlash	Institutsional taqiq
Ommaviy axborot diskursi	Firibgarlardan ehtiyot bo'ling.	Jamoatchilikni ogohlantirish	Ijtimoiy xavfsizlik

Har bir diskursda ularning maqsadi umumiy — salbiy oqibatning oldini olish bo'lsa-da, ifoda shakli va pragmatik kuchi turlicha bo'ladi. Tibbiy diskursda ular tavsiya va ehtiyotkorlik bilan, pedagogik diskursda nazorat va tarbiya bilan, oilaviy diskursda mehr va g'amxo'rlik bilan, rasmiy diskursda esa norma va taqiq bilan bog'lanadi. Demak, preventiv aktlarni faqat til shakli asosida emas, balki qo'llanish sohasi va ijtimoiy vazifasi asosida ham tahlil qilish zarur.

Preventiv nutqiy aktlarning kommunikativ samaradorligi adresat tomonidan qanday qabul qilinishiga bog'liq. Agar ogohlantirish haddan tashqari keskin bo'lsa, u qarshilik uyg'otishi mumkin. Agar juda yumshoq bo'lsa, adresat uni jiddiy qabul qilmasligi ehtimoli mavjud. Shuning uchun so'zlovchi vaziyatga mos nutqiy strategiyani tanlashi kerak. Masalan, xavfli vaziyatda «Iltimos, imkon bo'lsa, to'xtab turing» deyish yetarli bo'lmasligi mumkin; bunday holatda «To'xtang!» shakli samaraliroq. Aksincha, rasmiy yozishmada «Buni darhol qiling» deyish keskin eshitiladi; «Belgilangan muddatda bajarishingiz so'raladi» shakli esa maqbulroqdir.

Preventiv nutqiy aktlar yuzaga kelishida milliy madaniyat bilan bir qatorda individual kommunikativ tajriba ham muhimdir. Har bir shaxs ogohlantirishni o'z tajribasi, tarbiyasi, ijtimoiy muhiti va nutqiy odatlariga ko'ra ifodalaydi. Ba'zi kishilar preventiv aktlarni keskin va qisqa shaklda qo'llasa, boshqalar yumshoq, izohli va maslahatga yaqin shakldan foydalanadi. Bu farq shaxsning kommunikativ uslubi bilan bog'liq bo'lsa-da, ijtimoiy muhit va madaniy me'yorlar uni tartibga solib turadi.

Preventiv nutqiy aktlar ko'pincha konfliktning oldini olish vazifasini ham bajaradi. Masalan, «Bu masalada ehtiyotkorroq gapirganimiz ma'qul», «Hozir bu mavzuni ko'tarmay turganimiz yaxshi», «Bu fikr noto'g'ri tushunilishi mumkin» kabi ifodalar bevosita xavf emas, balki kommunikativ ziddiyatning oldini olishga qaratilgan. Bunday holatda preventiv akt ijtimoiy munosabatlarni saqlash, muloqotdagi noqulaylikni kamaytirish va taraflar o'rtasidagi muvozanatni ushlab turishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, preventiv nutqiy aktlar sotsiopragmatik jihatdan murakkab, ko'p vazifali va ijtimoiy jihatdan muhim hodisadir. Ular orqali so'zlovchi adresatni ehtimoliy xavf, noxush oqibat yoki ijtimoiy nomuvofiqlikdan ogohlantiradi. Preventiv aktlarning shakli ijtimoiy maqom, kommunikativ masofa, nutq vaziyati, madaniy me'yorlar va xushmuomalalik tamoyillariga bog'liq holda o'zgaradi. O'zbek tilida bu aktlar ko'pincha muloyim, bilvosita, hurmatga asoslangan va izohli shakllarda namoyon bo'ladi. Bevosita preventiv aktlar xavfli va tezkor vaziyatlarda samarali bo'lsa, bilvosita aktlar rasmiy, hurmatli va nozik muloqot sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, preventiv nutqiy aktlarni o'rganish nafaqat pragmalingvistika, balki sotsiopragmatika, diskurs tahlili, madaniyatlararo kommunikatsiya va nutq madaniyati uchun ham muhimdir. Chunki bunday aktlar tilning ijtimoiy boshqaruv, muloqotni muvofiqlashtirish va insonlararo munosabatlarni tartibga solish imkoniyatlarini

yaqqol namoyon etadi. Kelgusida preventiv nutqiy aktlarni turli tillar materialida qiyosiy o'rganish, ularning gender, yosh, kasbiy diskurs va ommaviy kommunikatsiyadagi xususiyatlarini tahlil qilish mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitadi.

Rezyume. Mazkur maqolada preventiv nutqiy aktlarning sotsiopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Preventiv nutqiy aktlar adresatni ehtimoliy xavf, noxush oqibat, ijtimoiy nomuvofiqlik yoki kommunikativ ziddiyatdan ogohlantirishga xizmat qiluvchi nutqiy birliklar sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda preventiv aktlarning ogohlantirish, maslahat, ehtiyotkorlikka chaqirish, taqiqlash, ogoh etish va muayyan harakatdan tiyilishga undash kabi pragmatik vazifalari yoritiladi.

Resume. This article analyzes the sociopragmatic features of preventive speech acts. Preventive speech acts are interpreted as communicative units aimed at warning the addressee about possible danger, undesirable consequences or social discomfort. The article examines the direct and indirect forms of preventive speech acts, their pragmatic force and communicative effectiveness.

Резюме. В статье анализируются социопрагматические особенности превентивных речевых актов. Превентивные речевые акты рассматриваются как коммуникативные единицы, направленные на предупреждение адресата о возможной опасности, нежелательных последствиях или социальном дискомфорте. В статье рассматриваются прямые и косвенные формы превентивных речевых актов, их прагматическая сила и коммуникативная эффективность.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QO'LYOZMALARDA KOTIBLARNING (NUSXA KO'CHIRUVCHILARNING) ENG MUHIM AMALLARI

Erimmatova Zuxra Azimboyevna,
O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti
arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Matnshunoslik nazariy planda matnlarni ilmiy tadqiq etishning umumiy qonuniyatlari, turli tarixiy bosqichlarda ularning o'zgarib borish xususiyatlari, barqarorlashgan asosiy tushunchalari va matnni qayta tiklash prinsiplari kabi masalalarni tartibga soladi[1].

Uning dastxat, nusxa, qoralama, oqqa ko'chirma nusxa(kopiya), arxetip, variant kabi muammoli masalalari va asosiy tushunchalari; atributsiya, sanasini belgilash, sharxlash, konyektura (buzilgan, xiralashgan eski yozuvni taxmin bilan tuzatish, tiklash), kotib yo'l qo'ygan xatolarni o'rganish kabi umumiy metod va usullar bo'yicha yuzaga kelgan umumiy mezonlar va me'yorlarni tartibga soladi.

Bir vaqtning o'zida manbashunoslik jihatidan qaraladigan bo'lsa, nazariy manbashunoslik yo'nalishi amaliy manbashunoslik tajribasini umumlashtiradi, yozma manbalarning vujudga kelishi va ularning real tarixiy sharoitni o 'zida aks ettirish qonuniyatlari, manbalarni izlab topish, turkumlash, tavsifga olish, tartibga solish asoslarini ishlab chiqadi va ularni ilmiy muomalaga kiritishning, amaliy o'rganishning eng

[1] Маҳмуд Ҳасаний,Алимулла Ҳабибуллаев. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2012. – B. 13.